

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA O'YIN ORQALI TA'LIM
BERISHNING ILMIY ASOSLARI**

Dadaxanova Muniraxon Avazxonovna

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani

11-Davlat maktabgacha ta'lism tashkiloti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy loyiha orqali maktabgacha yoshdagi bolalarga o'yin orqali ta'lism berishning samaradorligi va ularning rivojlanishidagi o'rni chuqurroq o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'yin orqali ta'lism bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilib, ularning turli qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Mazkur loyiha asosida maktabgacha ta'lism tashkilotlarida o'yin orqali ta'lism berish dasturlarini takomillashtirish va ularni yanada kengroq joriy etish uchun tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

Kalit so'z: Maktabgacha ta'lism, bolalaik, bilim, o'yin, davr

Abstract: This scientific project has been used to study the effectiveness of game-based education for preschool children and its role in their development. The results show that game-based education makes the learning process of children interesting and effective, creating a wide range of opportunities for developing their various abilities. Based on this project, recommendations can be developed for improving game-based education programs in preschool educational organizations and for their wider implementation.

Keywords: Preschool education, children, knowledge, game, period

Kirish

Maktabgacha ta'lism davri – bolalar uchun qiziquvchanlik, har tomonlama rivojlanish va o'yin orqali o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan davrdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin orqali o'rgatish usuli bolalarning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Ushbu loyiha maktabgacha yoshdagi bolalarga o'yin orqali ta'lism berishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganishga qaratilgan.

Loyihaning maqsadi

Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning bilim olish jarayonida o'yinlar yordamida o'zlashtirish samaradorligini oshirish va bu jarayonning ularning rivojlanishiga ta'sirini ilmiy asosda tadqiq qilish.

Loyihaning vazifalari

1. O'yin orqali ta'lismning psixologik va pedagogik asoslarini o'rganish.
2. Maktabgacha ta'linda o'yinlar yordamida bilim olish jarayonini rivojlantirish usullarini aniqlash.
3. O'yin orqali ta'lism berishning bolalarning ijtimoiy, intellektual va jismoniy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish.
4. Bolalarning turli o'yinlar orqali o'rganishdagi natijalarini baholash.

Nazariy asoslar

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

1. Psixologik asoslar: Bolalarning psixologik rivojlanishida o‘yin orqali o‘rganish muhim rol o‘ynaydi. Psixolog Vygotskiy fikricha, o‘yinlar bolalarning mantiqiy fikrlash va tasavvur doirasini kengaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

2. Pedagogik asoslar: Didaktik nazariyaga ko‘ra, bolalarga o‘yin orqali ta’lim berish ularning bilim olish jarayonini qiziqarli va osonlashtiradi. Piagetning rivojlanish nazariyasida o‘yinlar bolalarning kognitiv rivojlanishi uchun zarurligi ta’kidlangan.

Tadqiqot usullari

1. Kuzatish: Bolalarning o‘yin jarayonida qaysi mavzularga ko‘proq qiziqishini kuzatish.

2. Eksperimentlar o‘tkazish: Turli didaktik va harakatli o‘yinlarni sinovdan o‘tkazish orqali ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini o‘rganish.

3. So‘rovnomalar va suhbatlar: O‘qituvchilar va ota-onalar bilan suhbatlashish orqali o‘yin orqali ta’limning bolalarga ta’sirini aniqlash.

4. Ma'lumotlarni tahlil qilish: Eksperiment va kuzatuvarlar asosida to‘plangan ma'lumotlarni tahlil qilish.

Tadqiqot jarayoni

1. Boshlang‘ich tahlil: Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda qo‘llanilayotgan o‘yin turlarini o‘rganish va ularning mazmuni bilan tanishish.

2. Didaktik o‘yinlar tashkil qilish: Ranglar, shakllar, raqamlar, hayvonlar, o‘simgiliklar va boshqalar mavzusidagi didaktik o‘yinlarni tanlash. Masalan, ranglar va shakllarni o‘rganish uchun kartochkalar bilan o‘yinlar, raqamlarni tanitish uchun qo‘g‘irchoqlar yordamida matematik o‘yinlar.

3. Rol o‘ynash o‘yinlari: "Doktor va bemor", "Do‘kon o‘yini", "Oila" kabi rol o‘ynash o‘yinlari orqali bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bu orqali bolalar o‘zlarining his-tuyg‘ularini ifodalash, o‘zaro hamkorlik qilish va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

4. Mantiqiy va jismoniy o‘yinlar: Pazl, konstruktor o‘yinlari va harakatli o‘yinlar orqali bolalarning mantiqiy fikrlash, jismoniy rivojlanish va harakatlardagi muvofiqliklarini rivojlantirish.

Natijalar va tahlili

Ijtimoiy rivojlanish: O‘yinlar orqali bolalar o‘zaro aloqa qilish, boshqalarga yordam berish va jamoadagi roli haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

Intellektual rivojlanish: Didaktik va mantiqiy o‘yinlar orqali bolalarning analitik fikrlash, muammoni yechish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatini oshadi.

Jismoniy rivojlanish: Harakatli o‘yinlar bolalarning koordinatsiya va muvofiqlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ularning sog‘lom rivojlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.R.Kodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari;
2. S.K. Shodiyeva- “O’rta guruh bolalari nutqini o,,stirish” o’quv qo’llanma. T.: “O’qituvchi” 1993 yil;
3. D.R.Babayeva “Nutq o’stirish metodikasi” T.: Fan va texnologiyalar 2009 yil.
4. D.R.Babayeva “Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi” o’quv qo’llanma. TDPU 2016 yil.
5. D.R. Babayeva “Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi” darslik TDPU 2017 yil.
6. G.Jalolova “Bolalarni mакtabga tayyorlashda noan’anaviy o’yinlardan foydalanish”. T.: 2007.

